

CHDPU 3-kurs talabasi

Ro'zmatov Sodiqjon

Ilmiy rahbar: Hikmat Hikmatov

CHDPU adabiyotshinoslik kafedrasi o'qituvchisi

ANNOTATSIYA: *Abushakuri Balxiy 10 asrning mashhur shoirlaridan hisoblanadi. Uning hayot va faolyati Buxoda o'tgan. Usha davrda Buxora Somoniylar davlatining poytaxti edi va ilmu adabiyot markazi hisoblanar edi. Uning qachon tug'ilganligi va vafoti ma'lum emas ammo taxmin qilish mumkinki u ustoz Rudakiyning hamzamoni edi. Rudakiy esa 10 asrning ikkinchi yarmida ijod etgan. Abushakur boshlang'ich ta'limni o'z shahri Balxda olib keyinchalik o'z ilmini rivojlantirish uchun, Buxoroga safar qilgan. U yerda u Somoniylar podshohligi darborida, shoirlik xizmatini bajargan va yaxshi notiq sifatida tanilgan. Ammo uning asarlarinig ko'plari bizning zamonamizgacha yetib kelmagan. Uning kotta asarlaridan "Ofarinнома" masnaviysi mavjud bo'lib, uning yozilishi sanasi 944 milodiy deb aytadi o'zining baytida va bu asardan 300 bayt saqlanib qolingan.*

Kalid so'zlar: *hamzamon, ilm, masnaviy, darbor, markaz, poytaxt, faolyat, asar, davr, shukuh, porcha.*

Idrok va aql tavsifi Abushakuri Balxiyning "Ofairnnoma" masnaviysida katta urinni egallagan. Bu porchalarida, dubaytilar keltiriladi, unda "xiradmand aytadi" deb boshlanadi. Balxiy bu asarda buyukroq idrok va uning insonlarga juda kerak ekanligini badeiy obrazlar orqali aytib o'tadi. U donishmand odam tilidan aytadiyki idrok hamma uchun odamlarga ham va podshohlarga ham hukmron bo'lsin. Har bir inson ushanning farmoni bilan itoat etsin. Demak, vujudagi eng asosiy va muhim narsa bu aql va idrok sanaladi. Faqat aql va idrok insonnig yurish turishini nazorat qila oladi va uni tug'ri yulga boshlaydi. Shuning uchun har bir kishi uning amr farmoniga va maslahatiga amal qilsin, shunda hamma ishi o'zi

xohlagandek bo'ladi va orzu maqsadlariga erishishga sabab bo'ladi. Shoir inson vujudini podshohdek tasavvur qiladi, uning tanasini lashkar deb, uning orzularini esa podshohga toat qiluvchi xizmatkorlar deb tasavvur qiladi. Bu shundayin ma'noni bildiradiki, insonning tanasi, moddiy orzu xohishlari tuliq aqlu idrok nazoratida bo'lishi lozim. Agar insonning vujudida aql podshohlik qilmasa, uning tanasining moddiy xohishlari sardorsiz lashkar kabi, nazorat va itoatdan chiqib, yomon yulga yuradi va har xil jinoyatlarni sodir etadi.

Xiradmand go'yad: xirad podshost,
/Donishmand aytadi: aql podshodir/
Ki bar xosu bar om farmonravost.
/Hamma odamlarga hukm o'tkazuvchidir/
Xiradro tani odam lashkar ast,
/Aqlga inson tanasi lashkardir/
Hama shahvatu ozi u chokar ast.
/Hamma xohishi, hirsiz xizmatkordir/

Shoir idrokni podshoh sifatida qiyoslab, odamlarga maslahat beruvchi, xalqqa madadkor kuch, yordam beruvchi vosita hisoblaydi. Va shu joyda aqlni yoki idrokni chuponga uxshatib, ramaga qarovchi va ularni bo'rilardan himoya qiladigan kishi misolida ko'rsatib o'tadi. Bu qiyoslikda ramaning misoli nimada va bo'rining misoli nimada tushunish qiyin emas. Rama bu odam, bo'ri esa inson yomon xulq atvorlari bo'lib, unga har tarafdin hujum qiladi:

Xiradmand go'yad: man az har guro'h
/Donishmand aytadi: men har guro'hdan/
Xiradmandro besh didam shuko'h.
/Donishmandni ko'p ko'rdim , azamatli/
Xirad podshohe buvad mehrubon,
/Idrok mehrubon podshoh kabidir/
Buvad dar rama gurgro chun shubon.
/Ramada bo'ridan saqlovchi chupon kabidir/

Donishmandning bu kalomida yana bir donishmandning afzal tarafi odamlar

ichida ya'ni oliy martaba sohibi ekanligi tushuniladi. Bu yerdan ma'lum bo'ladiki shoir idrokni aql ma'nosida, donishmandlikni aql egasi sifatida tushunib ishlatgan. Qadim zamonlarda, donishmand insonlarning martabasi va qadri juda yuqori darajada edi. Podshohlar majlislari ularning ishtirokisiz utkazilmas edi. Donishmandlar o'zlarining ko'p ma'noli so'zlari bilan, majlislarga nur taratar edilar. Podshohlar ularni izzatu ikrom qilib, ularning so'zlarini diqqat bilan eshitar edilar va davlatni boshqarishda ulardan maslahat surar edilar. Ular hatto harakat qilar edilarki donishmandlarni o'zlariga vazir qilib olsalar. Eron podshohi Mavjuddavlayi Daylamiy o'zining vazoratini mamlakatga kelgan, buyuk donishmandga ya'ni Abuali ibn Sinoga topshirgan.

Shuning uchun Abushakuri Balxiy insonning ulug'ligini donolikda va donishmandlikda deb bilgan. Shoir ta'kidlab o'tganki donolik insonni yuqoriga kutaradi. Yuqoriga deganda yuqori mansabga ega bo'lish yoki davlatmand bo'lish emas balki ma'naviy jihatdan yuqori darajaga kutarilishni aytib o'tadi. Hammani ham agar yuqoriga kutarilgan bo'lsa dono deb bo'lmas. Nodon kishi ham turli yullar bilan mansabga ,davlatga va obru e'tiborga ega bo'lishi mumkin ammo bu kutarilish haqiqiy emas balki soxta bo'lib tashqi ko'rinishdan shunday ko'rinadi. Dono kishi tashqi ko'rinishdan oliy ko'rinmasa ham, davlat sarvat egasi bo'lmasa ham, haqiqiy yuqori martaba egasidir. Shuning uchun tashqi ko'rinishdan yuqori darajada bo'lgan nodon kishilar sizni aldab quymasiz va tashqi ko'rinishdan yuqori bo'lmagan dono kishilarga qalb ko'zi bilan qarang, chunki davlat egasi bo'magan dono davlat egasi bo'lgan nodondan afzalroqdir.

Bad-on ko'sh, to zud dono shaviy,
/G'ayrat qil, tezda dono bulursan/
Chu dono shaviy zud bolo shaviy.
/Agar dono bo'lsang, tezda oliy bo'lursan/
Na donotar on kas, ki volotar ast,
/Donoroq emas onkim oilyroqdir/
Ki volotar ast on ki donotar ast.
/Oliyroqdir onkim donoroqdir/

Tanho aql va idrok bilan haqiqiy oliy martabaga kutarilsih mumkinligini Abushakuri Balxiy keyingi dubaytiylarida aytib o'tgan. Unda aytib o'tiladiki inson sha'nu shavkatni aql vositasida qulga kiritadi. Bu yerda ma'naviy ulug'lik haqida gap boradi. Abushakuri Balxiyning aqidasi kura ulug' bir nurga molu zar tufayli emas balki ilm vositasida erishish mumkin. Agar podshoh ma'rifatli bo'lmasa, u sha'nu sharafga erisholmaydi. U mol to'plash bilan mashg'ul bo'lib, ilm o'rganmagan:

Xiradmand go'yad, ki ta'yidu far
/Donishmand aytadi, sha'nu sharaf/
Ba donish ba mardum rasad, na ba zar.
/Aql bilan xalqga yetur, zar bilan emas/
Chu dono shavad mardi baxshandakaf,
/Agar dono saxovatli kishi bo'lsa/
Mar o'ro rasad bar haqiqat sharaf.
/U haqiqatga, sharafga erishur/

Shoirning bu kalomi hukmdor va davlat arboblari tegishli ekanligini bilish mumkin va u insonning ulug'ligini nafaqat ilm bilan balki uning xayru ehsonlariga aloqador qilgan. Ammo faqat xayru ehsonning o'zi sha'nu sharafni paydo qilishga yetarli emas. Bu martabaga erishish uchun aql va donishmandlik kerak bo'ladi. Agar bu ikki fazilat-- donolik va xayru ehson insonda birlashsa, u boshqalardan sharaf paydo qila oladi. Abushakuri Balxiy aql bilan idrokni nafaqat insonning asl sharafining ulug'ligi balki uning xulqini poklovchi vosita hisoblaydi. Va u shunday aqidaga ega, agar insonning aql zakovati qanchalik ortib borsa, shunchalik yaxshilik qilishga rag'bat paydo qiladi va o'zini yomonlikdan va yomon ishlardan pok tutadi.

REFERENCES

1. Абдуллоев А. Захири Форёбӣ, Душанбе, 1974.; Адабиёти форс-тоҷик дар нимаи аввали асри 11, Душанбе, 1979.
2. Акбаров Юсуф. Талаби ҳаёт ва қисмати адабиёт. Душанбе, 1977.
3. Амонов Рачаб, Таърихи адабиёти советии тоҷик, Душанбе, 1989